

PAPER

Turkiston madrasalari ta'lim tizimi (XIX–XX asrlar)

Karimov Qahramon Sodiqovich ^{1,*}

¹Qo'qon davlat universiteti

* qahramonjob876@umail.uz

Abstract

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston hududida shakllangan xalq ta'limi tizimining holati va rivojlanish dinamikasi maqolada har tomonlama tahlil qilingan. Mualliflar ushbu davrda mavjud bo'lgan an'anaviy maktablarning miqdoriy ko'lami hamda ularda amalga oshirilgan o'quv-tarbiya jarayonining sifatiga oid manbalarni solishtirma tarzda o'rganadilar. Shuningdek, madrasa ta'limi tizimi, uning tashkiliy-huquqiy asoslari, dars berish an'analari, talaba-mudarris munosabatlari va madrasada xizmat qilgan mansabdor shaxslar lavozimlarining ta'rifi bo'yicha aniq tarixiy ma'lumotlar ilmiy asosda yoritib berilgan. Maqolada ta'lim jarayonining mazmun-moxiyati, o'qitish metodlari, muallimlarning kasbiy tayinlovi va madrasa iyerarxiyasidagi vazifalarning o'sha davr jamiyatining ijtimoiy-farhangiy ehtiyojlari bilan bog'liqligi tahlil etiladi. Shu tariqa, tadqiqot Turkiston xonliklari ta'lim tizimining strukturasi, funksional vazifalari va pedagogik madaniyatini kompleks o'rganishga qaratilgan.

Key words: xalq maktablari, madrasa, mutavvalli saylovi, vaqf mulklari, mudarris, uyezd, o'quv muassasalari inspektori.

Kirish

Mustaqil O'zbekistonda fuqarolarning ta'lim olish huquqi mamlakat Konstitutsiyasida alohida modda sifatida mustahkamlangan bo'lib, mazkur norma ta'lim sohasidagi barqaror davlat siyosatining asosiy negizi hisoblanadi. Davlat tomonidan umumiy o'rta ta'limning bepul asosda ta'minlanishi bilan bir qatorda, to'lov-kontrakt asosida ta'lim olish imkoniyatlarining kafolatlanishi fuqarolarning ta'limga bo'lgan ehtiyojini erkin

va rag'batlantiruvchi sharoitda qondirishga xizmat qilmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda pedagogik jarayonning ko'p tillilik tamoyilini ta'minlash maqsadida 7 ta tilda ta'lim berilishi milliy madaniyatlar rango-rangligini qo'llab-quvvatlash, etnik guruhlarining ta'lim ehtiyojlarini qamrab olish va inklyuziv ta'lim siyosatini amalga oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Tarixiy manbalar va pedagogik tadqiqotlar ko'rsatishicha, xalq ta'limi tizimini to'g'ri yo'lga

Compiled on: November 24, 2025.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Education* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](#).

qo'yish, uni izchil boshqarish va ta'lim jarayonini strategik ravishda rejalashtirish har qanday jamiyatning ma'naviy-madaniy yuksalishi, milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlash va ijtimoiy taraqqiyot sur'atlarini tezlashtirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'zbekiston tajribasi ham ushbu qonuniyatning amalda tasdiqlangan namunasi sifatida ta'lim sohasidagi islohotlarning davlat barqarorligi va jamiyat ravnaqidagi o'rne qay darajada muhim ekanini yana bir bor namoyon etmoqda.

Mavzuning dolzarbligi.

Ta'lim sohasi zamonaviy jamiyat taraqqiyotining asosiy strategik manbai sifatida namoyon bo'lib, uning ilmiy-texnologik, iqtisodiy va madaniy rivojlanishdagi roli tobora ortib bormoqda. Shu boisdan, davlat va jamiyatning istiqbolini belgilashga mas'ul bo'lgan, keng tafakkurli siyosatchilar hamda davlat arboblari ijtimoiy barqarorlik va milliy taraqqiyotni ta'minlash jarayonida ta'limning mutlaq ustuvor o'rin egallashini doimiy ravishda ta'kidlab kelmoqdalar.

O'zbekistonda yashab kelayotgan 130 dan ortiq etnik guruh vakillarining huquqiy tengligi esa mamlakatda olib borilayotgan inklyuziv, adolatparvar va insonparvar davlat siyosatining amaliy ifodasi hisoblanadi. Etnokonfessional xilma-xillik sharoitida barcha fuqarolar uchun teng ta'lim imkoniyatlarining yaratilishi ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash, milliy madaniyatlar rang-barangligini asrash va umumiy fuqarolik identifikatsiyasini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Jadal transformatsiya qilinayotgan global ta'lim muhitida zamonaviy pedagogik tizimlarni o'rganish, ilg'or xalqaro tajribalarni joriy etish bilan bir qatorda, milliy pedagogika tarixi va mahalliy ta'lim an'alarini chuqur o'rganish alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki ta'lim taraqqiyotining hozirgi bosqichini to'laqonli anglash, avvalo, uning tarixiy ildizlarini, shakllanish bosqichlarini va evolyutsion rivojlanish qonuniyatlarini puxta tahlil qilishni talab etadi

Maqolaning ilmiy mohiyati

Tadqiqotning asosiy maqsadi Turkiston o'lkasida shakllangan ma'muriy-boshqaruv tizimi doirasida amalga oshirilgan xalq ta'limi siyosati va uning

amaliyotdagi ko'rinishlarini har tomonlama yoritishdan iboratdir. Xususan, o'lkada faoliyat yuritgan an'anaviy maktablarning tuzilishi, o'quv-tarbiya jarayonining mazmun va sifati, o'qitish usullari hamda ta'lim muassasalarining jamiyatda tutgan o'rne batafsil tahlil qilinadi.

Shu bilan bir qatorda, madrasa ta'limi tizimi, uning tashkiliy-huquqiy asoslari, o'quv rejalari, mudarris va shu'ba rahbarlari kabi lavozimlarning vazifaviy majburiyatlari va ularning ta'lim jarayoni samaradorligiga ta'siri haqidagi tadqiqotlar ahamiyati ilmiy jihatdan asoslangan holda ochib beriladi. Umuman, ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan ishlar Turkiston jamiyatining ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishini, ta'lim tizimining o'ziga xosligini, shuningdek, tarixiy davrning ijtimoiy-siyosiy xususiyatlarini anglashda muhim manba vazifasini bajaradi.

Asosiy qism

Turkiston tarixini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, xonliklarning inqirozli so'nggi bosqichida hokimiyat doirasida yo'l qo'yilgan strategik xatolar, markazsizlik, boshboshdoqlik va taxt talabgorlari o'rtasidagi muttasil kurashlar natijasida xalq ta'limi tizimi amalda e'tibordan chetda qoldirilgan. Boshqaruvdagi beqarorlik sharoitida ta'lim muassasalari davlat nazoratidan mahrum etilgan, ta'lim jarayoni esa tizimli tashkil etilmay, o'z-o'ziga tashlab qo'yilgan. Bu holat butun Turkiston hududida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy va harbiy inqirozning avj olishiga olib kelgan.

Dunyo sivilizatsiyasi rivojiga asrlar davomida ulkan hissa qo'shgan Turkiston o'lkasi shu tarzda zaiflashgan va oqibatda tashqi kuchlar ta'sirida qaram hududga aylantirilgan. Xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari bilan bir qatorda, xalq ta'limi ham mavjud siyosiy maqsadlarni amalga oshirish vositasiga aylantirilgan bo'lib, bu jarayon ta'lim tizimini tashkil etish va boshqarishning keyingi bir necha o'n yilliklarini oldindan belgilab berdi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, XIX asr o'rtalarda Xiva va Qo'qon xonliklari hamda Buxoro amirligi o'rtasidagi siyosiy va ma'muriy aloqalarning cheklanganligi tufayli xalq ta'limi tizimi har bir hududda alohida, mustaqil tarzda shakllangan. Tizimning samaradorligi to'g'ridan-to'g'ri xon va uning amaldorlarining ta'lim masalasiga bo'lgan

munosabatiga bog'liq bo'lgan. Shunday qilib, XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, mahalliy xalq ta'limi ustidan nazoratning to'liq susayishi, maktab va madrasalarning holati ustidan yagona davlat siyosati yo'qligi sababli ta'lim muassasalari soni bilan ulardagi ta'lim-tarbiya sifati o'rtasidagi mutanosiblik butunlay izdan chiqqan. Uzlüksiz ta'lim tamoyili barqaror amal qilmay, tizimning tarkibiy izchilligi yo'qolgan.

1878-yilda Farg'ona vodiysida uch oylik ilmiy safarda bo'lgan akademik A.F. Middendorf mahalliy maktablarning ko'pligi va savodxonlikning tarqalganini ta'kidlab, ushbu holatni Rossiya imperiyasi uchun namuna sifatida baholaydi. Uning fikriga ko'ra, vodiydagi "har bir mahalliy dehqon o'qishni biladi" .. Biroq ta'lim tarixi bo'yicha yetakchi mutaxassis K.Ye. Bendrikov mazkur fikrni tanqidiy qayta ko'rib, savodxonlik masalasini aniqroq talqin etadi. Uning ta'kidlashicha, aslida dehqonlarning aksariyati to'liq o'qish va yozish ko'nikmalariga ega bo'lmagan, balki asosan Qur'oni Karim suralarini yoddan o'qishga o'rgatilgan. Demak, "o'qishni biladi" degan bayonot amaliy ma'noda diniy matnlarni yoddan o'qish qobiliyati bilan cheklangan .

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston xonliklarida mavjud bo'lgan xalq ta'limi tizimida maktablar soni bilan ulardagi ta'lim sifati, shuningdek, savodxon aholi ulushi o'rtasida barqaror bog'liqlik mavjud emas edi. Maktablar miqdori ko'paygani holda, ta'lim mazmunining sifat jihatdan takomillashmagani, o'qituvchilarning tayyorgarlik darajasi pastligi, ta'limning metodik va tashkiliy jihatdan yetarlicha rivojlanmagani sifatida ko'zga tashlandi. XIX asr oxiriga kelib esa chor ma'muriyati tomonidan mahalliy xalq ta'limi tizimidan siyosiy va ma'muriy manfaatlar yo'lida foydalanishga qaratilgan harakatlar natijasida mazkur munosabat yanada murakkablashdi. Bu jarayonda maktablar soni, ta'lim sifati va savodxonlik darajasi o'rtasidagi mutanosiblik batamom izdan chiqdi.

Bu holatning asosiy sabablaridan biri — Turkistonning birinchi general-gubernatori K.P. Kaufman tomonidan ishlab chiqilgan "rejali" siyosat bo'lib, unga ko'ra mahalliy aholi ta'limining ahvoli qasddan e'tibordan chetda qoldirildi. Boshqaruv organlari tomonidan musulmon maktablari va madrasalarini nazorat qilish,

ularning rivojini qo'llab-quvvatlash yoki isloh qilish o'rniga, aksincha, ularning tabiiy tanazzuliga yo'l ochib beruvchi "e'tiborsiz qoldirish" siyosati amalga oshirildi. Natijada avvaldan ham yetarlicha tizimlashmagan ta'lim muassasalarida boshqaruv tizimi izdan chiqdi, ta'lim sifatinining yanada pasayishi kuzatildi, ta'lim bosqichlari o'rtasidagi uzluksizlik yo'qoldi va tartib-intizom inqirozga uchradi.

Manbalarda XX asr boshlariga kelib Turkistonda maktablar sonining keskin oshgani ta'kidlanadi. Bir qarashda bu hodisa savodxonlikning ommalashuvi sifatida talqin qilinishi mumkin. Biroq vaziyatni chuqur tahlil qilish, bizni bunga boshqa izoh berishga asoslantiradi. Birinchidan, mahalliy aholi farzandlarining ta'lim olishga bo'lgan ehtiyoji va qiziqishi tanazzul davrida ham so'nmagani, ular imkoniyat bor joyda bolalarini o'qitishga intilishda davom etgan.

Ikkinchidan, chor ma'muriyatining maqsadli e'tiborsizlik siyosati oqibatida ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarishning markazlashgan, qonuniy asoslangan tizimi deyarli yo'qolib ketdi. Bu esa statistik jihatdan maktablar sonining keskin oshishiga sabab bo'ldi, ammo bu rivoj ta'lim sifati oshishi yoki savodxonlikning real o'sishi bilan mutlaqo bog'liq emas edi. Shunday qilib, maktablar ko'paygani holda ta'lim sifati pasayib bordi, savodxonlikning yetarli darajada o'smasligi esa mazkur jarayonning tartibsiz, nazoratsiz va siyosiy manfaatlar ta'sirida kechganining yaqqol ko'rsatkichidir. Xalq maktablarini tashkil etish bo'yicha mutaxassis, o'lka xalq maktablari 3-inspektori V.P.Nalivkinning ta'kidlashicha, 1890-yilning boshida Turkistonda maktablar soni rasman 5000 tani tashkil etgan bo'lsa, norasman ularning soni 10000 taga yaqin bo'lgan. Amalda mavjud manbalarda XIX asr oxiriga mansub maktablar soni ko'p bo'lgani ta'kidlansa-da, ushbu ta'lim maskanlarida o'quv jarayonining qanday tashkil etilgani, ta'limning haqiqiy sifati, o'quv bosqichlari o'rtasidagi bog'liqlik, dars jarayonining davomiyligi kabi muhim pedagogik parametrlar haqidagi tahliliy ma'lumotlar juda oz uchraydi. Holbuki, mazkur ko'rsatkichlar ta'limning samaradorligini aniq baholashda asosiy mezon vazifasini bajaradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Turkiston aholisining katta qismi XIX asrda ko'chmanchi chorvador qabilalardan iborat bo'lgan. Shu sababli,

o'lka ta'limi tarixi haqida so'z yuritilganda mahalliy aholining ko'chmanchi hayot tarzi, ularning ta'lim ehtiyojlari va o'quv jarayonini tashkil etishning o'ziga xos sharoitlarini albatta inobatga olish talab etiladi. Biroq manbalardan ma'lumki, xonliklarning so'nggi davrlarida ko'chmanchi qabilalar farzandlari uchun maktab tashkil etish masalasi deyarli nazoratdan chiqib ketgan. Ular uchun ta'lim maskanlari asosan bahor va erta yoz oylarida, chorvachilikdan nisbatan bo'sh vaqt mavjud bo'lgan fasllarda ochilgan. Bundan tashqari, bu maktablarda o'qituvchilik vazifasini asosan ta'til paytiga chiqqan, pedagogik tayyorgarligi yetarlicha bo'lmagan madrasa talabalari amalga oshirgan. Bu holat ta'lim sifati va uzluksizligiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Madrasa ta'lim tizimining moliyalashtirish manbalariga kelsak, O'rta Osiyoda eng keng tarqalgan iqtisodiy-huquqiy institutlaridan biri vaqf hisoblanadi. Vaqf muayyan mulkdor tomonidan ijtimoiy, ma'rifiy, diniy yoki xayriya maqsadlarida biror muassasa — masalan, madrasa, masjid, maktab yoki darilfuqaro — foydasiga mulkni xayr-ehson qilish shaklida amalga oshirilgan. Muhim jihati shundaki, vaqf instituti Islom tarixining ilk davrlaridayoq, Arab xalifaligi shakllanayotgan bosqichda paydo bo'lgan va keyinchalik barcha musulmon hududlarida keng tarqalgan. Ayniqsa, o'rta asrlar oxiriga kelib vaqf mulklari jamiyat tuzilishida chuqur ildiz otib, ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi omilga aylangan. Ta'kidlash joizki, vaqfning qirqa yaqin turi mavjud bo'lib, tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, ularning taxminan 20 foizi to'g'ridan-to'g'ri diniy va ma'rifiy maqsadlarda — jumladan, madrasalarni ta'minlash, mudarrislar maoshini to'lash, talabalarni oziq-ovqat va turar-joy bilan ta'minlash kabi ehtiyojlarga yo'naltirilgan. Bu holat madrasa ta'limi XIX asrda ham, bir tarafdin, jamiyatning iqtisodiy quvvatiga, ikkinchi tarafdin esa vaqf institutlarining samaradorligiga jiddiy bog'liq bo'lganini ko'rsatadi. tegishli bo'lib, u Qo'qon xoni Xudoyorxon tomonidan ham tasdiqlangan. Madrasalarda ta'lim jarayonini yo'lga quyilishida mudarris va mutavalli lavomida faoliyat olib boruvchilarning o'rnini ahamiyatli bo'lgan. Ularning o'z vazifalariga tayinlanish jarayonida saylash tartibi qo'llanilgan. 1913-yil 6-iyulda shakllantirilgan ish (delo) Qo'qon shahridagi "Mir" madrasasi

mudarrisleri saylovi to'g'risida qichik hajmdagi ma'lumotlar bor. Qo'qon uyezdi boshlig'ining 17385-sonli xatida (2 nafar) "Mir" madrasasi katta mudarrisleri saylovi to'g'risida ma'lumot berilgan. Ushbu xat 11-iyul 1913-yil sanasi bilan ro'yxatga olingan. Uezd boshlig'i imzo qo'yigan lekin na mahalliy(turkiy) na rus hukumati muhrlari bosilgan.

Har bir xat Turkiston o'lkasi o'quv muassasalari bosh inspektori (Glavnogo Inspektora uchilimiga Turkestanskaya kraya) nomiga jo'natilgan. Turkiston o'lkasi o'quv muassasalari bosh inspektoriga jo'natilgan xatiga, 10-noyabr 1915-yil 15124-sonli javob xati oladi. Javob xati to'liq matni quyidagilar keltirilgan.

Turkiston o'lkasi o'quv muassasalari bosh inspektoriga yuborilgan Qo'qon uyezdining 9141/1913-11858/1914-3738/1915-sonli xatida "Janobi Oliylaridan, mening Mudarrisni saylanganim haqidagi javobni "Mir" Qo'qon madrasasiga tezroq yetkazish mumkinmi, deb so'rashdan sharaflanaman"—degan mazmundagi xatlariga javoban, O'lka bosh inspektori Farg'ona viloyati general gubernatori tomonidan Qo'qon uyezd boshlig'iga "Mir" madrasasi 7 kun ichida o'tkazilgan mudarrislar saylovi aktini jo'natish uchun javoban yuborilgan.

Qo'qon uyezdining 1911-yil 25-iyundagi 2330-sonli xatida Turkiston o'lkasi o'quv muassasalari bosh inspektori nomiga Mingoyim madrasasida mudarrislar saylovi noto'g'ri o'tkazilgani to'g'risida ma'lumot bildirigan. Ushbu jo'natilgan xat boshqa uyezd xatlari singari oq qog'ozga 23X23 sentimetr hajmda muhrsiz, markasiz faqatgina 5 xonalik (masalan shu xatda 25211) raqam va imzo mavjud bo'lgan.

Ba'zi hollarda 5 xonalik raqam ustiga ham so'zlar yozilgan. Ushbu xatga javoban, O'lka bosh inspektori Farg'ona viloyat Kengashiga 8-avgust 1911-yil sanasida 7140-sonli xat yuborib, haqiqatan ham ushbu holat to'g'ri ekanligiga aniqlik kiritib berishlari so'ralgan.

Yana bir misol, Namangan uyezd boshlig'i tomonidan yuborilgan xatda, "...hozirgi yozishmalarni taqdim etgan holda, Kalandarxon masjidining mutavalli sini tanlash bo'yicha saylov jarayonlari bilan, Murtoz Xo'ja Xanto'rayev, sizdan Janobi Oliylaridan men uchun hech qanday to'siqlar bo'lmagan tanlangan mutavallilarni

ma'qullashingizni so'rayman" - mazmundagi tarixiy ma'lumotlar qoldirilgan.

Yangi mutavallilarni saylash jarayoni va uni rasmiy tartibda tasdiqlash borasidagi barcha axborotning Turkiston general-gubernatorligiga o'z vaqtida va xato-kemchiliksiz yetkazilishi koloniyal ma'muriyat tomonidan alohida ahamiyatga ega masala sifatida ko'rilgan.

Rossiya mustamlakachilik tuzumining ma'muriy-siyosiy amaliyotida vaqf muhassasalari bilan birga madrasalar ham metropoliya manfaatlariga zid, ijtimoiy ta'sir kuchiga ega, davlat uchun potensial "xatarli" institutlar sifatida baholangan. Shu bois, ma'muriyat imkoni boricha vaqf mulklarini musodara qilish, ularni davlat tasarrufiga o'tkazish siyosatini izchil amalga oshirishga intiladi.

Biroq kolonial hokimiyat islom dinining o'ziga, shuningdek, madrasa tizimiga rasman ochiq qarshi chiqishni siyosiy jihatdan maqbul deb bilmagan. Shu sababli ziddiyatli munosabat yashirin, zimniy chora-tadbirlar orqali olib borilgan. Xususan, mustamlakachilar madrasalardagi iqtisodiy-muassisiy mustaqillikni zaiflashtirishni ko'zlab, vaqf daromadlarining maqsadli sarflanishini ta'minlab turgan va xo'jalik ishlarini nazorat etgan "mutavalliboshi" lavozimini bekor qilishni amalga oshirgan. Bundan maqsad – nazoratsizlik sharoitida vaqf mablag'larining talon-taroj qilinishiga yo'l ochish orqali madrasalarning iqtisodiy poydevorini izdan chiqarish bo'lgan. Shu bilan birga, o'lkada rus ma'muriyati tomonidan olib borilgan ta'lim-siyosiy strategiya madrasa tizimini ijtimoiy mavqeydan mahrum etishni ham o'z ichiga olgan.

Jumladan, ushbu muassasalarni tamomlagan shaxslarni davlat idoralariga ishga qabul qilmaslik siyosati joriy etilgan bo'lib, bu orqali aholining an'anaviy diniy-ta'lim maskanlariga qiziqishini pasaytirish va ularning ijtimoiy ta'sir doirasini cheklash maqsadi ko'zlangan. Koloniyal ma'muriyatning diniy-ma'rifiy muassasalarga nisbatan tutgan cheklovchi siyosatining eng og'riqli ijtimoiy oqibatlaridan biri mahalliy aholi ongida "madrasada o'qib kim bo'lasan?" mazmunidagi salbiy, ta'lim qadrini inkor etuvchi stereotipning shakllanishi bo'ldi. Bu holat an'anaviy ilm maskanlari mavqeining sun'iy ravishda pasaytirilishi natijasida yuzaga keldi.



Shu bilan birga, yangi madrasalar barpo etish, mavjudlariga yoki boshqa ta'lim muassasalariga vaqf mulkini hadya qilish huquqi faqat Turkiston general-gubernatorining shaxsiy vakolatiga bir yo'la bog'lab qo'yildi. Ushbu ma'muriy cheklov amalda madrasalarni vaqf bilan ta'minlash mexanizmlarini mutlaqo izdan chiqardi va aksar hollarda vaqf in'om qilish imkoniyatini butunlay yo'qqa shyg'ardi.

Bundan tashqari, rus tuzumining tashabbusi bilan ko'plab madrasalar ta'mirlanmasdan, balki buzib tashlandi; ularning o'rnida yangi madrasa yoki bilim dargohlarini qurishga ham ruxsat berilmadi. Bunday siyosiy-idoraviy yondashuv mahalliy jamiyatning ilmiy-ma'rifiy taraqqiyotiga, madaniy rivojlanishiga va aholining ma'naviy saviyasi o'sishiga jiddiy zarar yetkazdi. Natijalar va amaliy ilmiy mulohazalar.

Tarixiy manbalar va ularning tarixshunoslik tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur voqeliklardan to'g'ri ilmiy xulosa chiqarish hozirgi davr uchun ham o'ta muhimdir. Ayniqsa, xalq savodxonligi, yosh avlod ta'lim-tarbiyasi va milliy ma'rifatni yuksaltirish masalalariga davlat darajasida berilayotgan e'tiborning mohiyatini anglash, uni ilmiy jihatdan asoslash va bu sohada muntazam tadqiqotlar olib borish zarurligi yanada ravshan bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, millat, davlat va jamiyat kelajagini belgilaydigan xalq ta'lim tizimini zamonaviy talablar asosida barqaror takomillashtirish jarayonida qatnastish, unga ilmiy-amaliy xizmat qilish har bir pedagogning faqat kasbiy vazifasi emas, balki ma'naviy burchi hisoblanadi. Yuqorida bayon etilgan tarixiy voqeliklar va manbaiy dalillarni inobatga olgan holda, tarix fanini o'qitish sifatini oshirishda manba

bilan ishlash madaniyatini kuchaytirish hamda ilmiy tadqiqot kompetensiyalarini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchi yo'nalish — manba bilan bevosita muloqotni kengaytirish. Tarixiy ma'lumotlarning ko'p qismi moddiy va ma'naviy meros obyektlarida mujassam bo'lganini hisobga olsak, ta'lim muassasalarida ekskursiya soatlarining to'liq bajarilishini qat'iy nazorat qilish, muzey va arxivlarda o'quvchi-talabalar bilan to'g'ridan-to'g'ri ishlash jarayonlarini kuchaytirish manbaga tayanadigan o'qitish usulining asosiy talabi hisoblanadi. Bu orqali o'quvchilar tarixiy manbaning tabiati, janri, vazifasi va huquqiy mohiyatini amalda anglab boradi.

Ikkinchi yo'nalish — yozma manbani mustaqil tahlil qilishga o'rgatish. Professor-o'qituvchi tomonidan tavsiya etilgan qo'shimcha adabiyotlar asosida uy vazifalarini bajarish talabi o'quvchilarning manba bilan mustaqil ishlash, ma'lumotni tanlash, solishtirish va ta'rixii voqelikni rekonstruksiya qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Topshiriqlarni puxta tekshirish esa manba tahlilida dalilning ishonchliligi, janrii xususiyati va kontekstini aniqlash kabi ilmiy mezonlar o'rgatilishiga xizmat qiladi.


Uchinchi yo'nalish — ochiq darslar orqali manbaiy materialni interpretatsiya qilish. Ta'lim muassasalaridagi ochiq darslarda yuqorida tilga olingan mavzularni tanlab olish va ularni pedagog tomonidan chuqur yoritish tarixii voqelikni interpretatsiya qilish (commentary, criticism) qobiliyatini kuchaytiradi. Bu orqali shogirdlar faqat faktlarni emas, balki ularning manbalarda qanday aks etganini, manba muallifining maqsadini va ijtimoiy-siyosiy vaziyatni tushunishga o'rganadilar.

To'rtinchi yo'nalish — moddiy va ma'naviy merosni manba sifatida talqin qilish. Tarixii obidalar, qo'lyozmalar, artefaktlar va allomalar hayotiga oid manbalar to'g'risidagi multimedia materiallarni ko'paytirish orqali ta'lim vizual manbalarni tahlil qilish imkoniyatini kengaytiradi. Bunday resurslar manbaning materiali, ishlangan davri, funksiyasi va madaniy konteksti bo'yicha xulosa chiqarish imkonini beradi.

Beshinchi yo'nalish — manbaga asoslangan baholash tizimi. Davlat ta'lim standartlariga muvofiq ravishda tarixii obidalar va qo'lyozmalarga oid qo'shimcha ma'lumotlar asosida nazorat

savollari tayyorlash va ularni nazorat ishlariga kiritish — manbaga asoslangan baholashning amaliy misoli hisoblanadi. Bu usul o'quvchini manbani tahlil qilish, dalillash, interpretatsiya qilish, manbalarni solishtirish kabi ilmiy amallarga jalb qiladi.

Turkiston o'lkasida ta'lim tizimi



Xulosa va manbaiy-ilmiy mulohazalar

Ma'lumki, yozma manbalar tarixii manbalarning eng muhim va ishonchli qatlamini tashkil etadi. Insonning ijtimoiy faoliyati, jamiyatning siyosiy-huquqiy munosabatlari va iqtisodiy jarayonlari aynan yozma manbalarda to'g'ridan-to'g'ri o'z aksini topadi. XIX asr oxiri — XX asr boshlariga oid rasmiy hujjatlar, moliyaviy-hisob daftarlari, ma'muriy yozishmalar — ushbu davrning ijtimoiy-siyosiy dinamikasini rekonstruksiya qilishda bebaho manbalar qatorida turadi.

Tarixii tadqiqotlarning manbaga asoslangan uslubini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

— pedagogik kasbga qiziqishi yuqori bo'lgan yoshlarni aniqlash va ularni manba bilan ishlash kompetensiyasiga ega holda tayyorlashni yo'lga qo'yish;

— zamonaviy pedagogik texnologiyalar va manba tahlili usullarini qo'llay oladigan, ilmiy-amaliy ko'nikmalarga ega pedagog kadrlarni tayyorlash;

— ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg'unligini ta'minlash orqali manba bilan ishlashni rivojlantiruvchi ta'lim mexanizmlarini kuchaytirish;

— pedagogik infratuzilmani takomillashtirishda fanlararo yondoshuv (arxeografiya, paleografiya, kodikologiya, diplomatiya) imkoniyatlaridan samarali foydalanish;

— yuqori madaniyatli, manba tahlili,

tekstologik va tarishunoslik ko'nikmalariga ega pedagog kadrlarni shakllantirish jarayonlarini chuqurlashtirish.

Shubhasiz, ta'lim muassasalari oldida turgan asosiy maqsad — zamonaviy bilim, mustaqil fikr va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega avlodni tarbiyalashdir. Uzluksiz ta'lim va ilm-fan tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun zarur manbaiy va tashkiliy sharoitlarni mustahkamlamoqda.

Amaldagi ishlar tahlili esa ta'lim tizimi oldida turgan vazifalarni manbaga asoslangan ilmiy yondashuv orqali yanada samarali tashkil etishga xizmat qilishiga ishonch uyg'otadi.

REFERENCES

1. O'zRMDA I-19-fond, 1-ro'yxat, 18011-ish.
2. O'zRMDA I-19-fond, 1-ro'yxat, 19060-ish.
3. Sobirjon Boltaboyev. Turkistondagi vaqf mulklari tarixi. "Namangan", 2005.
4. O'z.RMDA: 19-fond, 1-ruyxat, 34882-ish.
5. O'z. RMDA: 86-Fond, 1-ro'yxat.
6. Boltaboyev S. Turkistondagi vaqf mulklari tarixi. – Namangan: "Namangan" nashriyati, 2005.
7. Djurayev. D.U. Turkiston an'anaviy maktablari faoliyati tarixidan (XIX asr ikkinchi yarmi). // "Zamonaviy ta'lim" / "Sovremennoye obrazovaniye" ilmiy-amaliy jurnali, 2017-yil. 7-son.